

**BO‘LAJAK CHAQIRIQQACHA HARBIY TA‘LIM O‘QITUVCHILARINI
KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA‘LIM
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.**

Tojiyev Xakimjon Xoliqovich

Farg‘ona davlat universiteti

Harbiy ta‘lim fakulteti katta o‘qituvchisi

Bugungi kunda oliy ta‘lim o‘quv muassasalarida ham interaktiv metodlar, innovatsion pedagogik hamda axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonlarida ko‘llashga bo‘lgan qiziqish va e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, buning asosiy sabablaridan biri shu vaqtgacha an’anaviy ta‘limda talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chikarishlariga o‘rgatmoqda. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir katorada boshqaruvchilik va yo‘naltiruvchilik funktsiyalarini bajaradi.

Hozirgi vaqtda «Innovatsiya tushunchasi» juda keng qo‘llanilmoqda. **Innovatsiya so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib** — «**innovatsion**» **yangilik kiritish** degan ma‘noni bildiradi, ya‘ni tizim ichki tuzilishini o‘zgartirish, deb ta‘riflanadi. Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy- madaniy ob‘ekt sifatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan ijtimoiy sub‘ektlarning harakat tizimidir. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tuzilib, ta‘lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo‘ladi. Innovatsiya — ma‘lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo‘llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelmoqda.

Innovatsiyalar odatda bir necha muammo kesishgan vaqtda vujudga keladi va umuman yangi masalalarni hal qiladi, pedagogik jarayonning uzluksiz yangilanib borishga olib keladi. «Yangiliklarni joriy qilish» tushunchasi bizningcha, yangilik, ham ana shu yangilikni amaliyotga joriy etish jarayonidir. Yangilik- bu alohida olingan shaxs uchun yangi bo‘lgan g‘oyadir, bu g‘oya ob‘ektiv ravishda yangi yoki yangi emasligi ahamiyat kasb etmaydi, biz uni vaqt bo‘yicha yangilikni ochilgan payt yoki undan birinchi marta foydalanilgan paytda aniqlaymiz.

Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon deb- innovatsion o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni amalga

oshirish jarayoniga aytiladi. Innovatsion jarayon- bu pedagogik yangiliklar, bu yangiliklarning pedagogik hamjamiyat tomonidan o‘zlashtirilishi va ulardan ilmiy asosda amaliyotda samarali foydalanishning o‘zgarib boruvchi yaxlitligidir. Ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlar, ta’lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroflicha o‘rganilgan.

Innovatsion faoliyat- bu uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O‘qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlarini o‘rganib chiqqan pedagogik olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik kontseptsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o‘zidan boshqa tadqiqotchi—pedagoglar tajribalarini qo‘llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikir almashish va metodik yordam ko‘rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o‘z sharoitiga moslashtirib borish.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida qo‘llab ko‘rilib yaxshi samara berayotgan ilg‘or ta’lim tajribalari haqida to‘xtalib o‘tamiz ular quyidagilar;

Modulli o‘qitish - bu o‘qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta’lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

An’anaviy ta’limda o‘quv maqsadlari pedagog faoliyati orqali ifodalangan ya’ni bilim berishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, modulli o‘qitishda ta’lim oluvchilar faoliyati orqali ifodalanib, kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Modulli o‘qitishda o‘quv dasturlarini to‘la qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali bosqichma-bosqich o‘qitish imkoniyati yaratiladi. Ya’ni o‘qitishni individuallashtirish mumkin bo‘ladi.

Mukammal harakat modeli- bu mustaqil kasbiy harakatlanish modeli deb ham atalgan model - ta’rif sifatida kasbiy-texnikaviy sohada uchraydigan ko‘plab ish faoliyatlariga mos keladi.

Mukammal harakatni amalga oshirilishining o‘zi o‘rganish bilan teng deb hisoblanadi. Pedagogik muammo shundan iboratki har bir alohida bosqich bo‘yicha bir strategiyani

tanlash kerakki o‘quvchi ham hayolida (hayolda sinov sifatida harakatni bajarish) ham amalda mukammal harakatlarni bajarishi taminlanishi kerak.

Yo‘naltiruvchi matn usuli bu muammoni shunday hal qiladi: bu usul hayolda bajariladigan jarayonlarni deyarli tashqariga chiqaradi. Ya‘ni odatda faqat hayolda bo‘lib o‘tadigan narsalar bu usul bo‘yicha yozilishi yoki ovoz chiqarib aytilishi kerak.

Shuning uchun bu yerda bir necha teskari aloqa jarayonlari mavjud.

«Ma‘lumot yig‘ish», «Rejalashtirish», «Amalga oshirish» va «Tekshirish» bosqichlarini o‘quvchi deyarli butunlay o‘zi yoki kichik guruhlarda bajarishi mumkin. «Qaror qabul qilish» va «Xulosa chiqarish» bosqichlarida erishilgan natijalar esa amaliyot yoki nazariyot o‘qituvchilari bilan batafsil muhokama qilinishi kerak.

O‘quv jarayonini bunday bosqichlarga bo‘linishi talabalarni iloji boricha ko‘proq mustaqil o‘rganishga turtki beradi. Talabalarga «Ma‘lumot yig‘ish» va «Rejalashtirish» bosqichlarida yozma hujjatlar masalan texnik chizmalar, jadvallar, eslatmalar, yo‘riqnomalar yoki o‘zi tuzgan hujjatlarni bersa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday hujjatlar mustaqil o‘rganish jarayonini juda yaxshi kuchaytiradi.

Interfaol metodi- bu ta‘lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi hamda ta‘lim jarayonining markazida ta‘lim oluvchi bo‘lgan metodlardir. Bu metodlar qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta‘lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta‘lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta‘lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta‘lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e‘tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta‘lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta‘lim oluvchini tashabbuskorligi va mas‘uliyatini qo‘llab quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Bahs-munozara metodi- bu biror mavzu bo‘yicha ta‘lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta‘lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta‘lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta‘lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta‘lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta’lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- fikir-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Muammoli vaziyat metodi- bu tanlangan muammoning murakkabligi va ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak deganidir. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. Muammoli vaziyat metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni hamda ularning yechimini topishni o‘rganadilar.

Bularning barchasini inobatga olgan holda hozirgi kunda zamonaviy oliy ta’lim jarayonini tashkil etishga qo‘yilgan talablar nafaqat yuqori kasbiy faoliyatni amalga oshirishga balki ularni innovatsion texnologik jarayonlarini amalga oshirishga qodir bo‘lgan hamda bo‘lajak mutaxassislarni o‘z-o‘zini rivojlantirishi va ularni sifatli tayyorlanishiga qaratilishi lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaeva K.M. Maxsus fanlarni o‘qitishda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik asoslari: Ped.fan.nom.diss. avtoreferati. –T. - 2006.
2. Bepalko V.P. «Slagaemie pedagogicheskoy texnologii», M. 1989.
3. Klarin M.V. Razvitie pedagogicheskoy texnologii i problemi teorii obucheniya Sov.pedagogika.-Moskva , 1984.
4. Komenskiy Ya.A. Izbrannie pedagogicheskie sochineniya: V 2-x t.,T.2.– M.: Pedagogika, 1982.
5. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari. Ped.fanlari dokt. diss.-T.: 2007.
6. Saidova H.H. Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlarini amaliy ekspertizadan o‘tkazish metodikasi. Ped. fan. nomz. diss. -T.: TDPU, 2007.
7. Selevko G.K. Sovremennie obrazovatelnie texnologii.- M.: Narodnoe obrazovanie, 1998.